

UMIDSIZLIK VA ZULMAT YOXUD “O‘G‘RI” HIKOYASIDAGI QOBIL BOBO OBRAZI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Annotatsiya: *Abdulla Qahhor hikoyalari o‘zining sodda va ravon tilliligi bilan ajralib turadi. Hikoyalar zamirida jamiyat, ilmsizlik, umid va ishonch kabi qadrli odatlar bosh mavzuga olinadi. Ushbu hikoyada Qobil boboning birdan bir ho‘kizini yo‘qotishi, turli xil insonlar qo‘lida umid istab borishi, oxirgi puli qolguncha topish ilinjida berishi, O‘g‘rilikning o‘zi emas, balki undan keyingi jarayon – oddiy insonning adolat izlab boshiga tushgan mashaqqatlar, byurokratiya, tuhmat, yolg‘on va sovuq rasmiyatchilik asosiy fojia bo‘lib xizmat qilishi kabi voqealar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jamiyat, umidsizlik, Qobil bobo, kampir, ellikboshi, pristav, mulla, ho‘kiz, kechasi, o‘g‘ri, odamlar, mehnatkash, sabrli, dehqon, sodda.*

ОТЧАЯНИЕ И ТЬМА ИЛИ ОБРАЗ ДЕДУШКИ КОБИЛ В РАССКАЗЕ “БОР”

Пардабоева Адиба Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: *Рассказы Абдуллы Каххора отличаются простотой и беглым языком. В местоимении историй главной темой являются такие ценности, как общество, невежество, надежда и доверие. Эта история рассказывает о внезапной потере Дедушкой Каином быка, его отчаянной надежде от рук разных людей, его отчаянном стремлении найти до последних денег не саму кражу, а последующий процесс – главной трагедией служат трудности простого человека в поисках справедливости, бюрократия, клевета, ложь и холодные формальности.*

Ключевые слова: *Общество, отчаяние, Каин, дедушка, старуха, пятидесятилетняя, принц, мулла, бык, ночь, вор, люди, трудолюбивый, терпеливый, крестьянин, наивный.*

DESPAIR AND DARKNESS OR KHOBIL GRANDFATHER IN THE STORY “THE THIEF”

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State Pedagogical Institute.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Abstract:. *Abdulla Qahhor's stories are distinguished by their simplicity and fluent language. In the pronoun of stories, values such as society, ignorance, hope, and trust are the main theme. This story tells the story of Grandpa Cain's sudden loss of an ox, his desperation for hope at the hands of various people, his desperation to find until he has the last money, not the theft itself, but the process that follows – the difficulties of the common man in seeking justice, bureaucracy, slander, lies and cold formality serve as the main tragedy.*

Keywords: *Society, despair, Cain, grandfather, old woman, mullah, ox, night, thief, people, hardworking, patient, peasant, naïve.*

KIRISH

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi haqiqiy jamiyatni va ayollar obrazlaridagi sadoqat, itoat, umid tuyg‘ularini ochib bergan. Masalan, hikoyaning boshlanishida ho‘kiz yuqolganini kampir ko‘radi. Chunki kampir qorong‘u paytda turib, xamir qorimoqchi bo‘ladi. Yozuvchining mahorati shunchalik kuchliki, kitobxon asarni o‘qir ekan, ko‘z oldidan qorong‘u tunni, kampirning xamir qorish jarayonlarini o‘tkazadi. Kimdir uchun bu holat tanish bo‘lishi ham mumkin, negaki, kimningdir uyida buvisi, yangasi yoki oyisi albatta xamir tayyorlash uchun bu vaqtda turgan bo‘ladi. Qobil bobo va kampirning ho‘kizini yo‘qotganini bilgandan keyingi qilgan dod-voylarini eshitib, hovli odamga to‘lib ketadi.

O‘g‘rilikning o‘zi emas, balki undan keyingi jarayon – oddiy insonning adolat izlab boshiga tushgan mashaqqatlar, byurokratiya, tuhmat, yolg‘on va sovuq rasmiyatchilik asosiy fojia bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi ham aslida ho‘kiz va o‘g‘rini bir detal qilib olib, jamiyatdagi shu kabi illatlarni oz bo‘lsa-da, ochib berishga harakat qiladi. Qobil bobo oddiy, mehnatkash, halol dehqon. Hikoyaning boshidan oxirigacha u hayotdagi eng asosiy boyligini – ho‘kizini yo‘qotib, uni qaytarishga harakat qiladi. U shunchalik kambag‘alki, bir ho‘kiz u uchun «uy» o‘rnidadir, chunki uyini qurishga ham imkoniyat bermaydigan ahvolda. Ammo u samimiy, sofdil va ishonuvchan. U amin, ellikboshi, pristav kabi amaldorlarga, hatto ularning kamsituvchi va tamagirona munosabatlariga qaramay, umid bilan qaraydi. Qobil boboning bo‘yin egishi – bu o‘z kuchi bilan tizimni yengolmaydigan xalqning timsoli sifatida berilgan.

Keling, gaplarimizning isboti sifatida ho‘kiz yo‘qolganini eshitgan Qobil boboning ko‘rinishiga e‘tibor beramiz: yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida dag‘-dag‘ qaltirashi, tizzalari bukilib-bukilib ketishi, ko‘zlarining javdirashi holatlari oddiy va sodda dehqonnoing xuddi bor-bududidan ayrilgandagi ahvolini bildirgandek bo‘ladi. Qobul bobo shu qadar sodda dehqon, oddiy xalq odami sifatida berilganki, xatto, o‘zini yordam berayotgandek ko‘rsatib, aslida masalaning foyda ko‘rish tomonlarini o‘ylayotgan Ellikboshining “ – Ho‘kizing hech qayerga ketmaydi, topiladi!”, “oqqoshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, topiladi” degan yolg‘on so‘zlariga ishonadi, hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga beradi, yana kamiga duo ham qilib qo‘yadi. Jamiyatda Ellikboshiga o‘xshash, manfaat ko‘zlaydigan, birovning haqidan qo‘rqmaydigan insonlar yo‘q emas, albatta bor. Ellikboshi hokimiyatning bir pog‘onasida turgan kichik, biroq qudratli shaxs. U o‘zini yordam berayotgandek ko‘rsatadi, lekin aslida o‘z foydasini ko‘zlaydi. “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” degan iborasi orqali uning tabiatidagi riyokorlik va manfaatparastlik ochiladi. U tizimning egri-bugri, korrupsiyalashgan bo‘g‘inlaridan biridir.

Bu oraliqda Qobil boboning xotini ham qo‘lidan kelgancha uni duo qiladi. U sabrli, ibodatgo‘y ayol obrazi. Qobil bobo aminning yoniga borib-qaytaverganidan keyin “duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan “azoyimxonga obdasta-gardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpich tovoq jo‘xori, ikki voqeaga hissiy jihatdan chuqur yondashadi. U duoga ishonadi, azoyimxonga boradi, jo‘xori, ip, jiyda ko‘tarib

yuradi. Uning obrazida ayollarga xos mehr, ishonch, chorasizlik tasvirlanadi. Kampirning harakati, samimiy duolari ham amaldorlar to‘sig‘iga uriladi.

Pristav va amin obrazlari ham asarda qoralangan. Chunki, ular xalqning dardini eshitishdan ko‘ra, o‘zlariga kerakli pulni olib, insonlarni uyoqqa bor, buyoqqa bor deb “yugurdak” qilishlari insoniylikka ham umuman to‘g‘ri kelmaydigan odatdir. Pristav hamisha kuladi, masxara qiladi, hech qanday jiddiylik ko‘rsatmaydi. Qobil boboni pulga tiqib oladi, ammo aslida hech qanday yordam bermaydi. “Ho‘kiz yo‘qoldimi?” degan savol bilan ham vaziyatga befarq, sovuq munosabatini ko‘rsatadi. U mansabdorlarning oddiy xalq dardiga mutlaqo bepisandligini ifodalaydi. Amin esa eng yuqori darajadagi amaldor. Qobil bobo unga yetib borish uchun qanchadan-qancha odamlarga pul, tuxum, tovuq berishga majbur bo‘ladi. Pristav esa “aminga bor” degan javobi bilan unga e‘tibor bermaydi. Bu orqali muallif ierarxik tizimda amaldorlar xalqdan qanday yiroq bo‘lib qolganini ko‘rsatadi.

Yozuvchi hikoyada tilni juda oddiy, xalqona qilib ishlatgan. Har bir satrda xalqning og‘zaki nutqi, maqol va iboralar, hazil-mutoyiba aralashib ketgan. Masalan:

- “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”
- “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz”
- “O‘ynashmag‘il arbob bilan – seni urar har bob bilan”
- “Xudo yallaqag‘ur”
- “Otning o‘limi-itning bayrami”

Qobil bobo oxir-oqibat ho‘kiz emas, boshqa bir kishining ho‘kizini “yordam” tariqasida oladi, lekin bu ham to‘liq yengillik emas – “kichkina shart” orqali u yangi og‘irlik ostiga tushadi. Hikoya fojiali komediya shaklida tugaydi – kulgili tuyulsa-da, ichida og‘riq bor. Muallif bu orqali “oddiy odam hech qachon yengmaydi, faqat yengiladi” degan achchiq haqiqatni ochadi.

Hikoyadan oladigan xulosamiz shuki, “O‘g‘ri” hikoyasi o‘z zamonidagi ijtimoiy adolatsizlik, xalqning ojizligi va tizimning chirigan tuzilmasini fosh qiluvchi asar. Unda ko‘rsatilgan obrazlar – bugungi kunda ham tanish ko‘rinishlar. Qobil bobo esa – har zamonda mavjud bo‘lgan, tirikchiligi uchun kurashayotgan, ammo adolatdan yiroq qolgan oddiy odamning yurakdan chiqqan timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor, “Anor’
2. D. Quronov : Adabiyotshunoslikka kirish
3. Abdulla Qahhor, “O‘g‘ri” hikoyasi, 2019